



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish Instituti Pedagoglar markazi o'qituvchisi
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELEKTNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY NORMALAR VA KELGUSIDAGI MUHIM QADAMLAR

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): YOQUBJONOV M.O.
O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga soluvchi huquqiy normalar va kelgusidagi muhim
qadamlar // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) B.
79–86.



4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt (SI) sohasini huquqiy tartibga solishning amaldagi normativ-huquqiy bazasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – SI texnologiyalarini milliy qonunchilik doirasida samarali boshqarish uchun huquqiy asoslarni aniqlash, mavjud bo'shliqlarni belgilash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot natijasida SI ning huquqiy maqomini aniq belgilash, algoritmlarning shaffofligi, javobgarlik mexanizmlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi hamda milliy innovatsion ekotizimni rivojlantirish bo'yicha zaruriy choralar asoslab beriladi. Ilmiy yangilik sifatida, maqolada O'zbekistonda SI bo'yicha maxsus huquqiy rejimlar, strategiyalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining o'zni tizimli ravishda yoritiladi. Bundan tashqari, SI ni tartibga solishda yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqish, qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash hamda sud-huquq amaliyotiga SI texnologiyalarini huquqiy asosda integratsiya qilish zarurligi sababli kelgusida SI texnologiyalarini huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha milliy konsepsiya ishlab chiqish hamda xalqaro standartlarga mos huquqiy model yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (SI), huquqiy tartibga solish, algoritmlar shaffofligi, javobgarlik, ma'lumotlar xavfsizligi, innovatsion ekotizm, O'zbekiston.

ПРАВОВЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВАЖНЫЕ ШАГИ В БУДУЩЕМ

ЁКУБЖОНОВ Маъруфжон Одилжон

Преподаватель Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве Юстиции Республики Узбекистан
E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется действующая нормативно-правовая база правового регулирования сферы искусственного интеллекта (ИИ) в Республике Узбекистан. Цель исследования - определить правовые основы для эффективного управления технологиями ИИ в рамках национального законодательства, выявить существующие пробелы и предложить пути их устранения. В результате исследования обоснованы необходимые меры по четкому определению правового статуса ИИ, прозрачности алгоритмов, механизмов ответственности, безопасности персональных данных и развитию национальной инновационной экосистемы. В качестве научной новизны, статья систематически освещает роль специальных правовых режимов, стратегий и научно-исследовательских институтов в области ИИ в Узбекистане. Кроме того, в

связи с необходимостью разработки единой национальной концепции регулирования ИИ, обеспечения прозрачности и ответственности в процессе принятия решений, а также интеграции технологий ИИ в судебно-правовую практику на правовой основе, разработаны предложения и рекомендации по разработке национальной концепции правового регулирования технологий ИИ и созданию правовой модели, соответствующей международным стандартам.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), правовое регулирование, прозрачность алгоритмов, ответственность, безопасность данных, инновационная экосистема, Узбекистан.

MA'RUFJON Yoqubjonov

Lecturer at Training Institute for Lawyers,

E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

LEGAL NORMS REGULATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN UZBEKISTAN AND IMPORTANT FUTURE STEPS

ANNOTATION

This article analyzes the current regulatory framework for the legal regulation of the field of artificial intelligence (AI) in the Republic of Uzbekistan. The purpose of the research is to determine the legal basis for the effective management of AI technologies within the framework of national legislation, to identify existing gaps and propose ways to eliminate them. As a result of the research, a clear definition of the legal status of AI, transparency of algorithms, liability mechanisms, personal data security, and necessary measures for the development of a national innovation ecosystem are substantiated. As a scientific novelty, the article systematically covers special legal regimes, strategies, and the role of research institutes in AI in Uzbekistan. In addition, due to the need to develop a unified national concept for the regulation of AI, ensure transparency and accountability in the decision-making process, and integrate AI technologies into judicial practice on a legal basis, proposals and recommendations have been developed for the development of a national concept for the legal regulation of AI technologies in the future and the creation of a legal model that meets international standards.

Keywords: artificial intelligence (AI), legal regulation, transparency of algorithms, responsibility, data security, innovative ecosystem, Uzbekistan.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari dunyo miqyosida mislsiz sur'atlar bilan rivojlanib, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, huquqshunoslik va boshqa ko'plab sohalarining ichiga chuqur kirib bormoqda; bu jarayon O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishiga olib keldi. Ilmiy nuqtai nazardan, bunday texnologiyalarni keng joriy etish ularni huquqiy jihatdan tartibga solish, aniq me'yor va qoidalar bilan mustahkamlash, inson huquqlari, ma'lumotlar xavfsizligi va shaffoflik tamoyillarini ta'minlash zaruratini tug'diradi.

“Sun'iy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining muhim elementidir. Uning jadal rivojlanishi va amaliyotda qo'llanilishining kengayishi ushbu hodisani huquq sohasiga “qo'shish”ni taqozo etadi. Sun'iy intellektni rivojlantirish va qo'llash bilan boliq bo'lgan u yoki bu tarzda jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish murakkab vazifa bo'lib, mutaxassislar qaysi sohalar va faoliyatni tartibga solish kerakligi haqida turli xil qarashlarga ega va tartibga solishga taklif etilayotgan yondashuvlar turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi” [1].

Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish — bu SI tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish va ulardan foydalanish jarayonida huquqiy normalar, standartlar hamda mexanizmlarni belgilash va amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Bu tartibga solish SI texnologiyalarining asosiy xususiyatlari — avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va inson ishtirokisiz faoliyat yuritish imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Shu bois,

SI sohasidagi huquqiy tartibga solish faqat texnologiyani nazorat qilish bilan cheklanmay, balki inson huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va jarayonlarning shaffofligini kafolatlashni ham qamrab olishi lozim.

O'zbekistonda sun'iy intellekt (matnda SI deb yoziladi) tartibga soluvchi huquqiy normalar hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, ushbu sohaning milliy huquq tizimidagi istiqboli tobora aniq va dolzarb ko'rinish kasb etmoqda, chunki zamonaviy raqamli islohotlar jarayoni nafaqat texnologik, balki huquqiy asoslarni ham yangilashni talab qiladi; bu jarayonda davlat tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlar, shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va himoya qilishga doir amaldagi qonunchilik normalari SI texnologiyalarini joriy etishda poydevor vazifasini bajaradi, biroq bu normalar hali to'liq, kompleks va maxsus SI huquqiy rejimini yaratishga yetarli emas; aynan shu bois, kelgusidagi muhim qadamlar sifatida, birinchidan, sun'iy intellektning ta'rifini, tasnifini va huquqiy maqomini milliy qonunchilik darajasida belgilash, ikkinchidan, SI algoritmlaridan foydalanishda shaffoflik va javobgarlik prinsiplarini joriy etish, uchinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayotni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq me'yorlarni ishlab chiqish, to'rtinchidan, SI asosida qabul qilingan qarorlarning inson tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mexanizmini qonunda mustahkamlash zarur; buning ustiga, milliy innovatsion ekotizimni qo'llab quvvatlash, mahalliy dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilariga soliq imtiyozlari berish va davlat-xususiy sheriklik asosida SI laboratoriyalari ochish kabi iqtisodiy-huquqiy choralar ham sun'iy intellektning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi; bularning barchasi nafaqat texnologik yutuqlarni qonuniy asosda mustahkamlash, balki O'zbekistonning xalqaro raqamli iqtisodiyot maydonida mustahkam o'rin egallashini ta'minlash uchun ham zarur, chunki SI huquqiy tartibga solinmasa, demak, kelgusida mamlakatimiz SI bo'yicha yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqib, unda sohaning rivojlanish bosqichlari, tartibga solish modellari va ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilashi, qonunchilikni bosqichma-bosqich to'ldirishi hamda davlat organlari, ilmiy muassasalar va biznes sektor o'rtasida uzviy hamkorlik tizimini yo'lga qo'yishi – strategik va tarixiy ahamiyatga ega bo'ladi, chunki zamon kelib, sun'iy intellekt nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki davlat boshqaruvi, sud tizimi va fuqarolik munosabatlarida ham ishonchli hamkor sifatida faoliyat yurita boshlaydi; va shunda, qonunlarimiz zamon sinoviga bardosh bera oladigan, texnologik tafakkur va huquqiy donishmandlik uyg'unlashgan poydevorga aylanadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt sohasini tartibga solishga qaratilgan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqida so'z yuritamiz. Ushbu bo'limda mazkur hujjatlarning qabul qilinishiga sabab bo'lgan ehtiyojlar, ularning asosiy maqsad va vazifalari, qo'llanish doirasi hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu hujjatlarning sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga tatbiq etishdagi o'rni, shuningdek, huquqiy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli haqida ham batafsil to'xtalib o'tiladi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-sonli qaroriga ko'ra, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasidagi innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun maxsus rejim yaratilishi belgilangan[2]. Ushbu rejim axborot texnologiyalari parki (IT-park) tarkibida alohida bo'g'in sifatida faoliyat olib boradi va uning ishtirokchilari IT-park rezidentlari uchun belgilangan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Maxsus rejimning asosiy maqsadi — sun'iy intellektga asoslangan eksperimental tadqiqotlar, dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni amaliyotga tatbiq etish uchun qulay sharoitlarni yaratish. Qaror bilan maxsus rejim ishtirokchilari uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni

olish tartibi soddalashtiriladi (ariza besh ish kuni ichida ko'rib chiqiladi, hujjatlar ro'yxati qisqartiriladi va to'lov miqdori ikki baravarga kamaytiriladi), shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlarining davlat tomonidan qoplanishi belgilanadi. Maxsus rejim faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi mas'ul etib belgilangan bo'lsa, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi uning ishchi organi hisoblanadi. Maxsus rejim besh yil muddatga joriy etiladi, tajriba-sinov loyihalari esa bir yildan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi.

Ushbu hujjatning mazmuni O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmatlar faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash, uni yagona tizim asosida tashkil etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, unda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxona, muassasa va tashkilotlarda yuridik xizmatlarning asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari, huquq va majburiyatlari, boshqaruv va nazorat mexanizmlari belgilab beriladi. Hujjat yuridik xizmatlarning davlat boshqaruvidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, ularni amaldagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etgan holda faoliyat yuritishga yo'naltirish, huquqiy hujjatlarni sifatli tayyorlash va ularni qonuniylik prinsiplariga mos holda qo'llash bo'yicha aniq me'yorlar o'rnatadi. Mazmun jihatidan u yuridik xizmatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilash bilan birga, ularni moddiy-texnik va axborot resurslari bilan ta'minlash tartibini, xodimlarning malakasini oshirish mexanizmlarini ham qamrab oladi.

Hujjatning yana bir muhim jihati — yuridik xizmatlar faoliyatini muntazam monitoring qilish va tahlil etish, bu jarayon natijalarini qonunchilikni takomillashtirishda qo'llash mexanizmlarini belgilashidir. Shu orqali u yuridik xizmatlarning real samaradorligini oshirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda qonuniylikka rioya etilishini ta'minlash, huquqiy xatoliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, unda yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ishini nazorat qilish, metodik yordam ko'rsatish, malaka oshirish va tajriba almashish bo'yicha aniq vazifalar ham belgilangan. Mazmunni tizimli tahlil qilganda, hujjatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Yuridik xizmatlarning vakolat va mas'uliyatini aniq belgilash orqali ularning mustaqil va professional faoliyat yuritishiga sharoit yaratish.
2. Huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, ularning qonuniyligi va amaliy samaradorligini ta'minlash.
3. Yuridik xizmatlarning moddiy-texnik va kadrlar salohiyatini rivojlantirish.
4. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, shuningdek, boshqa subyektlarda yuridik xizmatlar faoliyatini yagona metodologiya asosida tashkil etish.
5. Yuridik xizmatlar faoliyatini baholash va tahlil qilish bo'yicha muntazam monitoring tizimini joriy etish.
6. Yuridik xizmatlarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalarni tatbiq etish.

Umuman olganda, ushbu hujjat yuridik xizmatlar sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini yaratish, sohani professional asosda rivojlantirish, qonuniylikni ta'minlash va huquqiy tartibotni mustahkamlashga qaratilgan. Shu ma'noda, hujjat faqat tartibga soluvchi me'yoriy hujjat emas, balki yuridik xizmatlar tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi konseptual yo'riqnoma vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-sonli qarori, Prezidentning PQ-5234-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, sun'iy intellekt

texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejimni tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Ushbu nizomda maxsus rejimdan foydalanish va uning ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish, ishchi organning vazifalari, talabgorlarni ro'yxatga olish, tajriba-sinov loyihalari davrida amaldagi qonunchilik normalaridan istisno qilish, shuningdek, ishtirokchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash tartibi belgilab berilgan. Qarorga binoan, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish hamda Innovatsion rivojlanish vazirliklari bir oy muddatda maxsus rejim faoliyatini yo'lga qo'yishi va ommaviy axborot vositalarida uning mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borishi lozimligi ko'rsatilgan. ushbu qarorga ko'ra, **Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida NIZOM** tasdiqlangan[3]bo'lib unga ko'ra, "sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratishga qaratilgan maxsus huquqiy rejim" maxsus rejim deb yuritiladi.

Maxsus rejim ishtirokchilari uchun bir qator imtiyoz va preferensiyalar belgilanadi, jumladan: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qarorida ko'rsatilgan talablarga javob bergan taqdirda IT-park rezidentlariga berilgan imtiyozlar ularga ham tatbiq etiladi; xodimlarning malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar Prezidentning 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarorida belgilangan tartibda davlat tomonidan qoplab beriladi; tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, lekin davlat sirlarini yoki qonun bilan himoyalangan boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydigan ma'lumot va hujjatlar, shuningdek, shaxsga doir egasizlashtirilgan ma'lumotlar vazirlik, idora va tashkilotlardan olinadi; ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish uchun talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati vakolatli davlat organi tomonidan qisqartiriladi, belgilangan to'lov miqdorlari ikki baravarga kamaytiriladi hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish bo'yicha talab va shartlar soddalashtirilgan holda belgilanadi.

Uchinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-sonli qarori "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qabul qilingan bo'lib, uning asosida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazlari negizida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi[4]. Ushbu institut davlat ilmiy tashkiloti maqomiga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Qarorga ko'ra, Institutning "Intellektual dasturiy tizimlar" qo'shma laboratoriyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida joylashad, Institutning joriy faoliyati davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi va xodimlariga Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari qo'llaniladi. Shuningdek, Institut direktori va uning o'rinbosarlari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri tomonidan tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

To'rtinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori mamlakatda sun'iy intellekt sohasini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat

bo‘lib, u 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan strategiya va uni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlaydi[5]. Ushbu hujjat sun‘iy intellektni raqamli texnologiyalar, sog‘liqni saqlash, fan va innovatsiyalar kabi turli sohalarga joriy etishga qaratilgan aniq loyihalarni, ularning ijro muddatlarini va mas‘ul vazirlik hamda idoralarni belgilab beradi. Qarorda, shuningdek, loyihalarni moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilib, Raqamli texnologiyalar, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar, Sog‘liqni saqlash vazirliklari va boshqa manfaatdor idoralarning hamkorlikda ishlashi hamda loyihalar ijrosi bo‘yicha muntazam hisobot berib borishi nazarda tutilgan.

Beshinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori raqamli iqtisodiyot va sun‘iy intellekt sohasida muhim amaliy qadam sifatida e‘tirof etilishi mumkin. Ushbu qaror bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi tarkibida “Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” (Markaz) tashkil etilgan[6]. Unga ko‘ra, Markazning asosiy maqsadi sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, bu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etishdan iborat. Markaz faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri - davlat organlari va xo‘jalik subyektlarining sun‘iy intellektga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish va ularga yechimlar taklif etishdan iborat. Hujjatga ilova qilingan jadvalda Markaz tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan bir qator aniq loyihalar keltirilgan.

Masalan, 2025-yil sentabr oyida “Klinik qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirish va qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy yordam sifatini oshirishga mo‘ljallangan sun‘iy intellektga asoslangan raqamli tibbiy yordamchi dasturiy ta‘minotini ishlab chiqish” ko‘rsatilgan. Shuningdek, “Sinov tariqasida kompyuter nigohi orqali shaxsni identifikatsiya qilgan holda kichik qoidabuzarliklarni (chekish holatlari, piyodalar belgilanmagan yo‘l qatnov qismidan o‘tish) aniqlash” loyihasi bo‘yicha texnik hujjatlarni ishlab chiqish ishlari 2025-yil dekabrga mo‘ljallangan. “Sun‘iy intellekt texnologiyasiga asoslangan “O‘zbek tili korpusi” uchun ma‘lumotlar to‘plamini shakllantirish” tizimi 2026-yilning fevralida yakunlanishi rejalashtirilgan bo‘lsa, “Sun‘iy intellekt yordamida Idoralararo hujjat aylanish tizimida vazifalarni avtomatik ravishda tayinlash va kuzatib borish, kechikishlarni aniqlash va yaqinlashib kelayotgan muddatlarni eslatib turish funksiyasini joriy etish” tizimini 2026-yilning noyabr oyida yakunlash ko‘zda tutilgan. Kadrlar masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilib, davlat idoralarining 100 nafar xodimining malakasini oshirish uchun onlayn kurslar tashkil etish rejalashtirilgan. Markaz davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati davlat budjeti, homiylik xayriyalari, xalqaro grantlar va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

J.Allayorovga ko‘ra, sun‘iy intellekt va huquqiy tahlil yuridik sanoatni o‘zgartirib, kutubxonalar va yuridik amaliyot uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda. Biroq, sun‘iy intellekt va huquqiy tahlildan foydalanish axloqiy va maxfiylik masalalari, huquqiy tahlildan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, tajribaning yetishmasligi, huquqiy ta‘limda integratsiyalashuv, adolatni ta‘minlash va tarafkashlikni bartaraf etish kabi xavotirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jahon yuridik amaliyoti tavsiyalariga amal qilish va soha mutaxassislarining fikrlarini hisobga olgan holda, kutubxonalar va yuridik amaliyot yuridik xizmatlar sifatini oshirish va huquqiy resurslardan teng foydalanishni ta‘minlash uchun sun‘iy intellekt va huquqiy tahlildan foydalanishi mumkin.[7] Haqiqatan ham, sun‘iy intellekt (SI) va huquqiy tahlil texnologiyalari qonunchilik amaliyotini tubdan o‘zgartirish imkoniga ega. Ular katta hajmdagi huquqiy ma‘lumotlarni qisqa fursatda qayta ishlash, murakkab huquqiy hujjatlar bo‘yicha tezkor xulosalar chiqarish, sud qarorlari va qonunchilikdagi tendensiyalarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa yuridik xizmatlarning samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘z navbatida A.Xudayberganov esa quyidagi fikrni ilgari suradi: sun‘iy intellektning huquqiy layoqati katta muammolarni keltirib chiqaradi. Beshta asosiy muammo - yuridik shaxsni belgilash,

sun'iy intellekt harakatlari uchun javobgarlik, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash, axloq va ma'naviy javobgarlikni belgilash. Ushbu muammolarni hal qilish uchun biz keng ko'lamli mulohaza va muhokamalar olib borishimiz, aniq huquqiy asoslarni ishlab chiqishimiz, an'anaviy asoslarga yangicha yondashuvlarni qo'llashimiz, shaxsiy hayot va xavfsizlikning mustahkam va moslashuvchan asoslarini yaratishimiz, jamiyat qadriyatlari va me'yorlarini hisobga olishimiz zarur. Jahon huquqiy amaliyoti tavsiyalariga amal qilish va ekspertlar fikrlarini hisobga olish orqali biz yanada barqaror va xavfsiz raqamli kelajak sari harakat qilishimiz mumkin. [7] Mazkur muammolarni hal etish uchun keng qamrovli huquqiy muhokamalarni yo'lga qo'yish, aniq va moslashuvchan normativ asoslarni ishlab chiqish, inson huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan kafolatlarni mustahkamlash hamda xalqaro huquqiy tajribani milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga solish masalasi hozirgi bosqichda strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat texnologik rivojlanishni huquqiy asoslar bilan mustahkamlash, balki inson huquqlari, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim deb hisoblaymiz. Huquqiy bazani takomillashtirish SI texnologiyalarining xavfsiz, shaffof va javobgar qo'llanilishini kafolatlaydi, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish orqali innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir davlatning texnologik suvereniteti, ularning xalqaro raqobatbardoshligi va o'z fuqarolarining raqamli huquqlarini himoya qilish faqat yagona, tizimli va oldindan o'ylangan huquqiy yondashuv orqali ta'minlanishi lozim. Yuqorida biz tahlil qilib o'tgan normativ-huquqiy hujjatlar xalqimizning milliy manfaatlariga mos global tajriba va ilg'or texnologik standartlarni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Sun'iy intellektidan umumbashariyat manfaatlari yo'lida oqilona va samarali foydalanish zarur", bu esa O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi siyosatida asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga soluvchi huquqiy normalarni shakllantirish jarayonida asosiy e'tibor inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilishi lozim deb hisoblaymiz. Shu nuqtai nazardan,

birinchi navbatda, SI sohasida yagona milliy konsepsiyani ishlab chiqish va uni huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu, o'z navbatida, davlat organlari, xususiyl sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy asosda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, SI qarorlarini qabul qilishda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash maqsadida axloqiy-me'yoriyl hujjatlar hamda doimiy monitoring mexanizmlarini joriyl etish talab etiladi.

Uchinchidan, sud-huquq amaliyotida SI texnologiyalarini qo'llashga doir aniq huquqiy normalar ishlab chiqilishi lozim. Bu, bir tomondan, sud qarorlarining tezkor va samarali qabul qilinishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, insonning adolatli sudlov huquqini kafolatlaydi.

Shunday qilib, sun'iy intellektni tartibga solishda huquqiy strategiya, axloqiy-me'yoriyl tizim va sud amaliyotiga integratsiya jarayoni uyg'un holda shakllantirilsa, O'zbekistonning ushbu sohada milliy manfaatlari bilan birga xalqaro standartlarga mos huquqiy model yaratiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -179 bet. ;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.08.2021 yildagi PQ-5234-son // URL: <https://lex.uz/docs/-5603319> ;
3. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida NIZOM (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.11.2021 yildagi 717-son) // URL: <https://lex.uz/docs/-5746496> ;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldagi 475-sonli qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5544451> ;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son // URL: <https://www.lex.uz/docs/-7158604> ;
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.07.2025 yildagi 425-son // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7621993> .
7. Legal Tech, Education and Digital Transformation of Law. Proceedings of the TSUL 2023 International Conference, February 20-21, 2023 (<https://library-tsul.uz/legal-tech-education-and-digital-transformation-of-law>)

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON, 6-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD

VOLUME 6, ISSUE 4

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416